


2019-yilning yanvar-avgust oylarida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalaridan 2997,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,9% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2,4% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 90,4% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,5% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 1,7% ga o'sishi hisoblanadi.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi, % da



2019-yilning yanvar-avgust oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2711,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,4 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 27,9 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 17,7 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 12,0 %, kiyim ishlab chiqarish 7,1 %, tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil oxirgi oylarida sanoatning ishlab chiqarish indeksi, % da



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yil
yanvar-avgust
oylarida

Ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari

O'sish sur'ati,
foizda

39 841

Paxta chigiti, t.



119,4

14 264,4

Paxtadan yigirilgan ip, t.



260,7

38 779,5


Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.



106,8

1 664

Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona



65,2

2019 yil
yanvar-avgust
oylarida

Ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari

O'sish sur'ati,
foizda

O'simlik yog'i (tozalangan), t.

7 558



86,6

Paxta tolasi, t.

24 324



107,2

Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun
qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona

531,4



115,6

Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.

1 801



165,8

Paxta linti, t.

2 053



106,8

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Joriy yilning yanvar-avgust oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 164,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 %ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 94,3 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizatsiya qilish 1,2 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,5 % ni tashkil etdi.




Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-avgust oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2997,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




2019 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarish indeksi, % da




Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shaxri (53,9 %) va Do'stlik (10,6 %), Paxtakor (5,8 %), Zomin (5,7 %), Sh.Rashidov (5,6 %), Forish (4,1 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'ri, % da




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1389,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 104,7 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 46,3 % ni tashkil etdi.




2018 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 67,3% dan 2019 yilning yanvar-avgust oylarida 69,5 % ga ko'paygan.



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2205,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shaxrida 9230,5 ming so'mni, Do'stlik tumanida 4915,6 ming so'mni, Paxtakor tumanida 2373,4 ming so'mni, Arnasoy tumanida 1640,7 ming so'mni tashkil etadi.


2019 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari, ming so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 sentyabr holatiga faoliyat yuritayotgan 101 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 788,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 26,3% ni tashkil etdi.

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'mda




Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi sanoat korxonalarining umumiy sanoat hajmidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 1919,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 64,0 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi, % da




Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 sentyabr holatiga 2720 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 935 tasi Jizzax shaxrida, 586 tasi Sharof Rashidov, 248 tasi G'allaorol, 206 tasi Zomin, 113 tasi Forish, 100 tasi Zarbdor, 99 tasi Paxtakor, 99 tasi Do'stlik, 84 tasi Baxmal, 78 tasi Mirzacho'l, 70 tasi Zafarobod, 57 tasi Arnasoy, 45 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



2019 yil 1 sentyabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Sanoat statistikasi bo'limi
telefon: (71) 230-83-47